PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

# BUXGALTERIYA XODIMINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

**Boyqobulova Iroda Jontemir qizi**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi o'qituvchisi

**Axatov Umarjon Alimardon o'g'li**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Aliqulov Azamat Erkin o'g'li**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20077050

**Annotatsiya.**
Ushbu maqolada buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar, ularning amaliyotdagi tatbiqi hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya kasbiga qo'yilayotgan yangi talablar ko'rib chiqilgan. Buxgalteriya xodimini kasbiy himoya qilish, uning javobgarligi chegaralari, axloq kodeksi va ichki nazoratdagi o'r ni masalalariga alohida e'ti bor qaratilgan.
**Kalit so'z lar**: buxgalteriya xodimi, huquqlar, majburiyatlar, moliyaviy javobgarlik, kasbiy etika, ichki nazorat, birlamchi hujjat, moliyaviy hisobot, axloq kodeksi, raqamli buxgalteriya.

**Abstract.**
This article examines the legal and regulatory framework governing the rights and responsibilities of accounting staff, their practical application, and the new requirements placed on the accounting profession in the context of the modern digital economy. Special attention is paid to professional protection of accounting personnel, the boundaries of their liability, the code of ethics, and their role in internal control.
**Key words:** accounting employee, rights, responsibilities, financial liability, professional ethics, internal control, primary document, financial reporting, code of conduct, digital accounting.

## Kirish.

Buxgalteriya hisobi har qanday tashkilotning moliyaviy faoliyatini aks ettiruvchi asosiy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimning markaziy figurasi bo'lib buxgalteriya xodimi hisoblanadi. O'z bekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'z bekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni moliya tizimini modernizatsiya qilish, xususan buxgalteriya sohasida kadrlar salohiyatini oshirish va kasbiy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish zaruratini alohida ta'kidlab o'tz an.[1]

Amaldagi qonunchilikda buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari aniq tartibga solingan bo'l sa-da, amaliyotda ko'plab muammolar mavjud. Xodimlarning o'z huquqlaridan bexabarligi, ortiqcha yuklamalar ostida ishlash, javobgarlik chegaralarining noaniqligi va raqamli

[1]O'z bekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'z bekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – 28.01.2022.

muhitdagi yangi kasbiy talablar – bularning barchasi buxgalteriya kasbini ilmiy jihatdan o'r ganishni taqozo etadi.[2]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mahalliy iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardayev, K.B.Urazov, X.Bakiyeva, N.Rizayev va R.O.Xolbekov singari tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida buxgalteriya xodimining kasbiy faoliyatiga doir nazariy va amaliy masalalar o'z aksini topgan.[3]

M.Q.Pardayev va K.B.Urazov: Ushbu olimlar o'z asarlarida buxgalteriya xodimining mas'ul iyatini "tashkilotning moliyaviy salomatligini asrash kaliti" sifatida baholashadi. Ularning fikricha, xodimning huquqlarini bilmasligi moliyaviy xatoliklar va huquqiy nizolarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

X.Bakiyeva va N.Rizayev: "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida buxgalteriya xodimining axloq kodeksi va kasbiy etika masalalariga alohida bob ajratilgan bo'lib, unda xodimning mustaqilligi, halolligi va obyektivligi uning faoliyatining asosi sifatida ko'r satilgan.[4]

Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya xodimining yangicha huquqiy maqomi, elektron hujjatlar bilan ishlashdagi javobgarligi va kibertahdidlardan himoya masalalari hali yetarlicha o'r ganilmagan. Aynan ushbu bo'sh liqni to'l dirish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.[5]

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, O'z bekiston Respublikasi Mehnat kodeksi,[6] "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, Soliq kodeksi,[7] korxonalar ichki mehnat qoidalari hamda xalqaro kasbiy standartlar (IFAC, IAS) tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar**

**Buxgalteriya xodimining huquqiy maqomi va me'yoriy asoslari**

O'z bekiston Respublikasida buxgalteriya xodimining huquqiy maqomi bir qancha me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (2016), Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi va tashkilotning ichki hujjatlari buxgalteriya xodimining vakolatlari doirasini belgilab beradi. Ushbu me'yoriy baza xodimning nafaqat majburiyatlarini, balki kasbiy huquqlarini ham himoya qiladi.

Tijorat va budjet tashkilotlarida buxgalteriya xodimlarining huquqiy maqomi quyidagi asosiy yo'n alishlar bo'yicha farqlanadi: moliyaviy javobgarlik chegarasi (xususiy sektorda keng, byudjet tashkilotlarida qattiq tartibga solingan); qaror qabul qilish vakolati (tijorat tashkilotlarida mustaqilroq, davlat muassasalarida yuqori nazorat ostida); raqamli tizimlar bilan ishlash majburiyati (ikkala sektorda ham jadal ortib bormoqda). Qonunchilik tahlili shuni ko'r satadiki, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi bosh buxgalterning huquqiy maqomini alohida belgilab, uning

[2]O'z bekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – 30.08.2016, 404-son.

[3]Pardayev M.Q., Urazov K.B., Xoliquloy A.N. Moliyaviy va iqtisodiy ma'lu mo tlarni tahlil qilish. O'quv qo'l lanma. – Samarqand: "Fan bulog'i", 2022. – 146 b.

[4]Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami. – T.: TMI, 2007. – B. 45–48.

[5]IFAC (International Federation of Accountants). Handbook of the Code of Ethics for Professional Accountants. – New York, 2023. – P. 12–14.

[6]O'z bekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – T., 2016 (so'nggi o'z gartirishlar bilan). 173–175-moddalar.

[7]O'z bekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T., 2019 (so'nggi o'z gartirishlar bilan). 13-bob.

[7]Veremenko S.A. Syurprizы reytinga kommercheskix bankov. Bankovskoe delo. №2. – 2005. – S. 34–37.

moliyaviy hujjatlarga ikkinchi imzo qo'yish vakolatini mustahkamlaydi. Bu esa buxgalterning nafaqat ijrochi, balki moliyaviy nazoratchi sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Buxgalteriya xodimining asosiy huquqlari va ularning amaliy tatbiqi**

Amaldagi qonunchilik va xalqaro kasbiy standartlar (IFAC) doirasida buxgalteriya xodimi quyidagi huquqlarga ega:

– Kasbiy mustaqillik huquqi – xodim moliyaviy ma'l umotlarni ob'yektiv aks ettirish uchun rahbariyatning noqonuniy ko'r satmalarini rad etish huquqiga ega;

– Zarur ma'l umotlarga kirish huquqi – hisob yuritish uchun barcha moliyaviy operatsiyalar va hujjatlardan xabardor bo'l ish;

– Kasbiy takomillashuv huquqi – malaka oshirish kurslari, treninglar va sertifikatlash dasturlarida qatnashish;

– Mehnat sharoitlari va haq to'l ash huquqi – Mehnat kodeksiga muvofiq adolatli ish haqi va me'yoriy ish vaqti;

– Himoya va sudga murojaat huquqi – noqonuniy bosim yoki ishdan bo'sh atilgan taqdirda huquqiy himoyadan foydalanish;

– Kasbiy sirrni saqlash huquqi – tashkilot moliyaviy ma'l umotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik to'g'risida kafolatga ega bo'l ish.

Amaliyot ko'r satishicha, ko'plab buxgalteriya xodimlari o'z larining kasbiy mustaqillik huquqidan to'l iq foydalanmaydi. Pardayev M.Q. va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, bunday hollarda korxonalarda moliyaviy hisobot sifati sezilarli darajada pasayib, audit xatoliklari 20–30% ga ko'payishi mumkin.[8]

Mehnat kodeksining 173–175-moddalariga muvofiq, buxgalteriya xodimi ish beruvchining huquqbuzarlik xarakteridagi ko'r satmalarini bajarishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lib, bu uchun unga nisbatan hech qanday intizomiy jazo qo'l lanishi mumkin emas.

**Buxgalteriya xodimining asosiy majburiyatlari va ularning tasnifi**

Buxgalteriya xodimining majburiyatlari uch asosiy guruhga bo'l inadi: huquqiy, kasbiy va axloqiy. Ushbu tasnif xodimning to'l iq mas'ul iyat doirasini tushunishga yordam beradi.

Birinchi guruh – huquqiy majburiyatlar**.** Har bir xo'j alik operatsiyasi tegishli birlamchi hujjat – kassa orderi, to'l ov topshiriqnomasi, schet-faktura va boshqalar bilan rasmiylashtirilishi shart. Xolbekov R.O. ta'ki dlashicha, birlamchi hujjat – bu "xo'j alik operatsiyasining qonuniyligi va haqiqiyligini tasdiqlovchi yagona vosita"dir.

Ikkinchi guruh – soliq va moliyaviy majburiyatlar. Buxgalteriya xodimi tashkilotning soliq hisobotini qonunchilik talablariga muvofiq o'z vaqtida topshirish va soliq to'l ovlarini to'g'ri hisoblash majburiyatini o'z zimmiga oladi. Soliq kodeksining 13-bobiga asosan, hisobot muddatini buzish yoki soliq bazasini kam ko'r satish uchun buxgalteriyaga nisbatan belgilangan miqdorda jarima qo'l lanadi.

Uchinchi guruh – kasbiy-axloqiy majburiyatlar. Xodim yillik balans, foyda va zarar to'g'risidagi hisobot hamda boshqa moliyaviy shakllarni xalqaro standartlar (XMHS/IFRS) talablariga muvofiq tuzishi shart.[9] Bundan tashqari, moliyaviy operatsiyalar ustidan ichki nazoratni amalga oshirish va g'ayriqonuniy bitimlarni aniqlash majburiyati ham xodim zimmasiga yuklatiladi.

**Buxgalteriya xodimining faoliyatidagi amaldagi muammolar va sabablarining tahlili**

[8]Pardayev M.Q. va boshq. Ko'rsat. asar. – B. 98–104.

[8]Bakiyeva X., Rizayev N. Ko'rsat. asar. – B. 63–67.

[9]Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent, 2004. – B. 112–118.

O’z bekiston tijorat va budjet tashkilotlarida buxgalteriya xodimlarining faoliyatini tahlil qilish bir qator tizimli muammolarni aniqlash imkonini berdi.[10]

Lavozim ko’rsatmalarining noaniq belgilanishi. Ba’zi tashkilotlarda buxgalteriya xodimiga lavozim yo’r iqnomasida ko’z da tutilmagan qo’sh imcha vazifalar yuklatilmoqda: kadrlar bo’yicha hujjatlarni yuritish, ombor hisobi, yuristlik vazifalari va boshqalar. Pardayev M.Q. tadqiqotlariga ko’ra, bunday tashkilotlarda buxgalterlarning asosiy moliyaviy hisobot sifati 35–40% gacha pasayadi. Elektron buxgalteriya tizimlariga o’ti sh jarayonida xodimlarning malakasi yetarli bo’l maganligi sababli operatsion xatoliklar kuzatilmoqda. Amaliyot shuni ko’r satadiki, an’anaviy va raqamli tizimning bir vaqtda qo’l lanilishi hujjatlarda 15–20% ga qadar nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi.[11] Buxgalteriya xodimi bilan moddiy javobgarlik to’g’risidagi shartnomaning tuzilmasligi yoki noto’g’ri rasmiylashtirilishi moliyaviy zararni qoplash jarayonini murakkablashtiradi. Mehnat kodeksiga muvofiq, bunday shartnoma mavjud bo’l masa, ish beruvchi yetkazilgan zararni undirishda huquqiy to’si qlarga duch keladi. Tijorat sirlarini oshkor qilish, manfaatlar to’q nashuvi holatlari va qo’sh imcha daromad manbalariga ega bo’l ish tashkilotga jiddiy huquqiy va obro’lik zararini yetkazadi. IFAC etika kodeksiga asosan, bunday hollar xodimning kasbiy sertifikatini bekor qilish asosi bo’l ishi mumkin. Moliyaviy ma’l umotlar raqamli muhitga o’ti shi bilan fishing hujumlari, ma’l umotlar sizishi va ruxsatsiz kirish xavfi ortmoqda. Tadqiqotlarga ko’ra, O’z bekiston tijorat tashkilotlarida 2022–2024 yillar oralig’ida moliyaviy ma’l umotlar bilan bog’l iq kiber hodisalar soni 2,5 barobar ko’paygan.

Yuqorida keltirilgan muammolar tahlili shuni ko’r satadiki, muammolarning asosiy sabablari uch guruhga bo’l inadi: me’yoriy-huquqiy (qonunchilikdagi bo’sh liqlar), tashkiliy (lavozim ko’r satmalarining noaniq tuzilishi) va ta’l imiy (zamonaviy kompetentsiyalar bo’yicha o’q itish tizimining sustligi). Shu boisdan ham muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur.

**Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya xodimiga qo’yilgan yangi talablar**

"Raqamli O’z bekiston – 2030" strategiyasi doirasida buxgalteriya sohasida ham sifat o’z garishlari amalga oshirilmoqda. Elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan hisob tizimlari joriy etilishi buxgalteriya xodimining vakolatlari va mas’ul iyatini yanada kengaytirmoqda.

IFAC kompetentsiyaviy doirasiga muvofiq,[12] raqamli davr buxgalteriya xodimidan quyidagi yangi kompetentsiyalarni talab etadi:

– Raqamli savodxonlik – elektron buxgalteriya dasturlari, ERP tizimlari va elektron hisobot platformalari bilan ishlash ko’nikmasi;

– Kiberxavfsizlik madaniyati – moliyaviy ma’l umotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish va ma’l umotlar maxfiyligini ta’mi nlash;

– Ma’l umotlar tahlili – katta hajmdagi moliyaviy ma’l umotlarni tahlil qilib, strategik qarorlar qabul qilishga ko’maklashish;

– Moslashuvchanlik – tez o’z garib borayotgan qonunchilik va texnologik muhitga operativ moslashish qobiliyati.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyada buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari alohida kasbiy kodekslar bilan tartibga solinib, mustaqil professional assotsiatsiyalar tomonidan nazorat qilinadi. IFAC kasbiy etika qoidalari buxgalteriya xodimini himoya qiluvchi mexanizmlar sifatida xalqaro tan olingan.

[10]O’z bekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lu mo tlari. – www.cbu.uz. – 2023 yil hisoboti.

[11]"Raqamli O’z bekiston – 2030" strategiyasi. O’z bekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5030-son Qarori. – 05.10.2020.

[12]IFAC. Competency Framework for Professional Accountants. – 2022. – P. 28–31.

**Xulosa**

O’z bekistonda ushbu tajribani joriy etish uchun uch bosqichli yondashuv tavsiya etiladi: birinchi bosqichda (2024–2025) barcha tashkilotlarda lavozim yo’r iqnomalarini xalqaro standartlarga muvofiq yangilash; ikkinchi bosqichda (2025–2026) kasbiy buxgalterlar assotsiatsiyasini mustahkamlash va sertifikatlash tizimini joriy etish; uchinchi bosqichda (2026–2030) raqamli kompetentsiyalar bo’yicha majburiy sertifikatlash tizimini to’l iq shakllantirish.

O’z bekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan barcha tashkilotlar uchun buxgalteriya xodimining yagona lavozim standartini ishlab chiqish lozim. Buxgalteriya xodimining kasbiy javobgarlik sug’urtasini majburiy qilish orqali xodimni ortiqcha moliyaviy xavflardan himoya qilish. O’z bekiston Moliya instituti va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda buxgalteriya xodimlarini "XMHS (IFRS) va Raqamli buxgalteriya" yo’n alishida majburiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Buxgalteriya xodimining g’ayriqonuniy moliyaviy operatsiyalar to’g’risida xavfsiz tarzda xabar berish imkoniyatini (whistleblowing) huquqiy asosda ta’mi nlash.

O’tikazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: O’z bekiston tashkilotlarida buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari doirasini aniq belgilovchi yagona kasbiy standart joriy etish zarur bo’l ib, bu moliyaviy hisobot sifatini va xodimning kasbiy himoyasini oshiradi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) talablariga muvofiq buxgalteriya xodimlarini muntazam o’q itish va malakasini oshirish lozim. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya xodimiga qo’yilayotgan yangi kompetentsiya talablari kasbiy ta’l im tizimini modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’z bekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’z bekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida"gi PF-60-son Farmoni. – 28.01.2022.
2. O’z bekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to’g’risida"gi Qonuni. – 30.08.2016, 404-son.
3. Pardayev M.Q., Urazov K.B., Xoliquloy A.N. Moliyaviy va iqtisodiy ma’lu mo tlarni tahlil qilish. O’quv qo’l lanma. – Samarqand: "Fan bulog’i", 2022. – 146 b.
4. Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to’plami. – T.: TMI, 2007.
5. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: Cho’l pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. O’z bekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – T., 2016 (so’nggi o’z gartirishlar bilan).
7. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent, 2004.
8. O’z bekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T., 2019 (so’nggi o’z gartirishlar bilan).
9. "Raqamli O’z bekiston – 2030" strategiyasi. PQ-5030-son Qaror. – 05.10.2020.
10. O’z bekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lu mo tlari. – www.cbu.uz. – 2023.